

KICHIK BIZNES FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Jumanov Ruslanbek Bobojonovich

Xorazm viloyati

Urganch Ranch Texnologiya Universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: parvonaparvoz@gmail.com

Tel: +998974570876

Annotatsiya

Maqolada kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy jihatlari, xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari orqali umumlashtirilgan. Mazkur masalani o‘rganish jarayonida tizimli, tarkibiy va mantiqiy umum-ilmiy yondashuvlar asosida mualliflik qarashlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: kichik biznes; samaradorlik; iqtisodiy salohiyat; omillar; ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar; mintaq.

Аннотация

В статье обобщены научно-теоретические аспекты повышения эффективности деятельности малого бизнеса, основанные на взглядах зарубежных и отечественных ученых. В процессе изучения данного вопроса были предложены авторские взгляды, основанные на системном, структурном и логическом общенаучных подходах.

Ключевые слова: малый бизнес; эффективность; экономический потенциал; факторы; социально-экономические условия; регион.

Abstract

The article summarizes the scientific and theoretical aspects of small business and its production potential through the views of foreign and domestic scientists. In the process of studying this issue, the author's views were proposed, based on systemic, structural and logical general scientific approaches.

Keywords: small business; efficiency; economic potential; factors; socio-economic conditions; region.

KIRISH

Kichik biznes jamiyatning hayotiy tarmog‘idir. Ularning hissasi odamlarni ish bilan ta‘minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, milliy va jahon iqtisodiyotiga hissa qo‘shishni o‘z ichiga oladi. Kichik biznesni rivojlanishi iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq, har yili katta

miqdordagi kichik korxonalar o'z faoliyatini to'xtatadi. Kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirishda ularga ta'sir etuvchi omillarni e'tiborga olish zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvar PF-60 son ""2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida""gi Farmoni ¹doirasida mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi 100 ta maqsad ishlab chiqildi. Ushbu strategiyaning 29-maqsadida "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish." [1] vazifasi qo'yilgan. Kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirish va uni taraqqiyotini ta'minlash rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiyl mulk ulushini oshirish va bozor iqtisodiyoti qoidalarini joriyl etishning asosiy vositasiga aylandi. Bozorlarning beqarorligi, raqobatning kuchayishi, mamlakatda tashqi va ichki iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishlarini hisobga olgan holda kichik biznesni rivojlantirishni innovatsion usullarini topishni taqozo etadi. Jahon mamlakatlari iqtisodiyotida ham xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi ishlab chiqarish salohiyati va uning bozorga moslashuvchanligiga bevosita bog'liq. Ayniqsa, kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirish ahamiyati kundan kunga ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirish ahamiyati, iqtisodiyotdagi tutgan o'rni, vazifalari va unga ta'sir etuvchi omillarni baholash uchun uning mohiyatini o'rganish zarur. Kichik biznes milliy iqtisodiyotning barqaror va uzluksiz rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar tajribasidan ham ma'lumki kichik biznesni rivojlanish holati bevosita iqtisodiyotni barqaror rivojlanishni ta'minlash bilan birga aholining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

2024 yilda kichik biznesning YAIMdagi ulushi iqtisodiyotdagi umumiy qo'shilgan qiymatning 51,2% dan 54,3% gacha ko'paygan [2]. Shunday bo'lsa-da, mazkur ko'rsatkichni yanada oshirish imkoniyati mavjud, shuning uchun kichik biznes subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirishda barcha imkoniyatlardan samarali foydalanish zarur.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes samaradorligi va uni oshirish masalalari ko'plab iqtisodiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Masalan, S. Abdullayev (2023) o'z tadqiqotida kichik biznes subyektlarining kredit resurslariga ega bo'lish muammolarini va ularning yechimlarini ko'rsatib o'tgan [3]. Shuningdek, N. Hasanov (2022) kichik biznesning

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvar PF-60 son ""2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida""gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

raqamli texnologiyalar yordamida rivojlanishini tahlil qilgan[4]. T. Karimov (2021) o'z tadqiqotida kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, kichik biznes uchun imtiyozli kreditlar, investitsiyalarni jalb qilish va davlat grantlari samaradorlikni oshirishda muhim omil hisoblanadi[5]. Shuningdek, J. Ahmedov (2020) tadqiqotida kichik biznes subyektlarining bozorga kirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Uning tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlari uchun raqobat muhiti, marketing strategiyalari va bozordagi raqobat ustunliklarining ahamiyatini ko'rsatgan[6]. I. Ismoilov (2019) tadqiqotida esa kichik biznesda innovatsiyalarni joriy etish masalalari ko'rib chiqilgan. Muallifga ko'ra, texnologik yangiliklar, raqamli tizimlar va avtomatizatsiya jarayonlari kichik biznes subyektlarining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi[7].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez usuli, iqtisodiy-matematik modellash, komparativ tahlil, anketalash va intervyu usuli, SWOT tahlil, korrelyatsiya va regressiya tahlili, normativ-huquqiy tahlil usullari qo'llanildi. Bu metodlar yordamida kichik biznes subyektlarining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va iqtisodiy natijalarning prognozi berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirishda mintaqadagi ishlab chiqarish salohiyatini baholash, unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va yaratilayotgan sharoitlardan maksimal foydalanish hamda iqtisodiy imkoniyatlarini baholash yuzasidan turlicha yondashuvlar mavjud. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va kichik biznes rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik ahamiyatli hisoblanib, uni yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ancha yuqori bo'lgan rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti taraqqiyotini ta'minlashda lokomotivi bo'lib xizmat qiladi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon iqtisodiyoti rivojlanishining qariyb 90 foizini tashkil etib, aholini mavjud ish o'rinlarining qariyb 70 foizini ta'minlamogda”[8]. Jahon iqtisodiyotida vujudga kelayotgan turli tebranishlar kichik biznesga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Koronavirus pandemiyasidan keyingi globallashuv jarayonlari mamlakatlar o'rtasidagi erkin bozor almashinuvini cheklash jarayonlari bilan almashtirilishi o'ziga xos muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda[9]. Bu kabi o'zgarishlar ta'siri ostida dunyoning turli mamlakatlari olimlari tomonidan kichik biznesni rivojlantirishning nazariy jihatlarini, mintaqaviy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va tarmoq muammolari bo'yicha tadqiqotlar

olib borilmoqda[10]. E.V.Romanenko o'z tadqiqotlarida kichik biznes sektori turli resurslardan foydalanish jarayonining samaradorligini belgilovchi turli bo'g'inlar (gorizontal va vertikal) birikmalarining o'zaro ta'siri asosida rivojlanadi va faoliyat ko'rsatadi, deb tariflagan. Ular xo'jalik yurituvchi subyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati hamda mehnat taqsimoti, resurslar ta'minoti turli ehtiyoj va manfaatlar o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllanadi, deb ta'kidlagan[11]. K.I. Kurpayanidi esa o'z tadqiqotlarida kichik biznesning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatidan to'liq foydalanish tashqi muhitga bog'liq deb, ta'kidlagan. Muallif kichik biznes salohiyatini "infratuzilma" holatiga bog'liqligini tadqiq qilgan[12]. Muallif kichik biznesni iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektlarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mexanizmi va institutsional muhitga bog'liq holda rivojlanish xususiyatlarini ochib bergan. Fikrimizcha, o'rganilgan tadqiqotlarda kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirishda mavjud resurslardan foydalanish darajasi, ishlab chiqarishni tashkil etish holati, innovatsion faoliyat va bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lgan ekologik omillarni ham hisobga olgan holda mintaqaning demografik holati va ishlab chiqarish kuchlarini joylashuviga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Demak, kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirish iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilashda, mavjud iqtisodiy-ijtimoiy tizimning yaxlitligini ta'minlash asosida iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanar ekan. Kichik biznes faoliyati samaradorligini oshishi umumiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi va iste'molchilar talabi qondiriladi. Milliy iqtisodiyotimizda ham kichik biznes subyektlarini iqtisodiy rivojlanish darajasini ta'minlash asosida hududlarning rivojlanishi ta'minlanadi. Ya'ni, mintaqalarning iqtisodiy salohiyati, jumladan, infratuzilma holati, tarmoqlarning rivojlanish darajasi va innovatsiyalar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirish asosida milliy iqtisodiyotni rivojlanish darajasini ta'minlash hisobiga quyidagilarga erishamiz: soliq bazasini kengaytirish asosida byudjet daromadlarini oshirish; yangi ish o'rinlarini paydo bo'lishi; monopoliyani oldini olish; infratuzilmani rivojlanishini ta'minlash; tashqi iqtisodiy aloqalarni yaxshilash; eksport qilish imkoniyatini oshirish; iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish. Bunda bevosita kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanuvchi korxonalar faoliyati natijalariga ta'sir qiluvchi omillarni baholash zarur hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy sharoitida mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshlik omil sifatida yuqori ahamiyatga ega. Shuningdek, A.Ye.Strelchenko o'z tadqiqotlarida kichik va o'rta biznesning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishda quyidagilarga e'tibor berishni ta'kidlaydi:

- Iqtisodiy (minimal o'z mablag'lari, imtiyozlar, talab, raqobat, iqtisodiy xavf) mezonlar;

- Ichki (innovatsion salohiyati, kadrlar malakasi texnologiyalar holati iqtisodiy aloqalar) manbalar;
- Institutsional (ishlab chiqarish kuchlarini joylashuvi, innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi va ragʻbatlantiruvchi vositalar va resurslar);
- Innovatsion infratuzilma (vositachilik, axborot, yuridik, bank va boshqa xizmatlar)[13].

Demak, yuqoridagi izlanishlar asosida fikr bildirsak, asosiy eʼtibor innovatsiyalarga qaratilmoqda. Odatda, salohiyat samaradorligini taʼminlashda mahsulotga qilinayotgan sarf-xarajatlar qisqarishi, natijadorlik esa ortishi lozim. Shu bilan birga, nafaqat ichki, balki tashqi bozorlardagi mahsulot realizatsiyasi ham oʻsishi lozim. Bu esa, eksport salohiyatini oʻsishiga olib keladi. Mazkur mezon mahsulot sifatini belgilab beradi. Kichik biznes subyektlarini ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish asosida ijtimoiy ishlab chiqarish natijalari ijobiy tomonga oʻzgaradi. Jumladan, V.M.Baginova, V.G.Belomestnov oʻz tadqiqotlarida kichik biznesning ishlab chiqarish natijalari asosida amal qiluvchi ijtimoiy afzalliklari qator quyidagi funksiyalarni oʻz ichiga oladi deb taʼkidlaganlar:

- Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi. Bunda tadbirkorning innovatsiyalarga eʼtibor qaratishi natijasida iqtisodiy inqirozdan chiqishi taʼminlanadi;
- Oʻz-oʻzini va aholi bandligini oʻsishi natijasida ijtimoiy samaradorlik taʼminlanadi;
- Ijodiy tadbirkor, yaʼni intellektual salohiyatni oshirish orqali ijodiy fikrlash, ijodiy nostandart qarorlar qabul qilish qobiliyati, boshqaruv va iqtisodiy tayyorgarlik, amaliy tajriba, biznesdagi aloqalar rivojlanadi;
- Tavakkalchilikni boshqarish funksiyasi kapital mablagʻlardan samarali foydalanish, noaniqlik va kutilmagan sharoitlarda strategik rejalashtirish, muammolarni tezkor hal qilish boʻyicha koʻnikmalar shakllanadi;
- Iqtisodiy rivojlanish natijasida ijtimoiy ishlab chiqarishning aniq sohalari boʻyicha mahsulot ishlab chiqarish xajmi ortadi[14].

Demak, kichik biznes subyektlari faoliyatini toʻgʻri tashkil etish asosida iqtisodiy samaradorlikni taʼminlash bilan birga ijtimoiy samaradorlik ham taʼminlanar ekan. Kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirishda eng muhim omillar, inson omili, inson kapitali va kapitalning yetarliligi, zamon talablari darajasida raqobatbardoshligi ishlab chiqarishni tashkil qilish hamda hajmini oshirishda muhimdir. J.B.Smagulova, R.A.Bisenova, B.X.Aydosovalar esa, kichik biznes subyektlarining iqtisodiy funksiyalarini maqsadli va instrumental guruhlariga boʻlib tadqiq qilganlar (1-rasm)

Kichik biznesning maqsadli funksiyalari	Kichik biznesning instrumental funksiyalari
• ishsizlikni oldini olish; • innovasion rivojlanishini ta'minlash; • ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash.	• monopol rivojlanishini oldini olish; • o'rta biznesni rivojlanishini ta'minlash; • yirik korxonalar uchun bozor segmentlarini to'ldirish.

1-rasm. Kichik biznes subyektlarining funksiyalari¹

Demak milliy iqtisodiyotda kichik biznes subyektlarini rivojlantirish asosida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash birga ijtimoiy rivojlanishni ham ta'minlaydi. Fikrimizcha, kichik biznes faoliyati samaradorligini oshirishda kichik biznesning maqsadli va instrumental funksiyalarini to'liq va rejali ishlashini ta'minlash mintaqqa iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik va o'rta biznes faoliyati samaradorligini oshirishda makroiqtisodiy funksiyalari ahamiyati katta bo'lib, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi aniq soha va uning elementlarini o'zaro iqtisodiy integratsiyalash asosida rivojlanishini ta'minlaydi. Kichik biznes faoliyatida innovatsion yo'nalishlariga e'tibor kechayotgan bo'lsa ham an'anaviy tadbirkorlik yo'nalishlaridan hisoblangan savdo, xizmatlar, qishloq xo'jaligi sohalarining ulushlari sanoat, axborot kommunikatsiya texnologiyalari kabi innovatsion sohalar ulushlaridan yuqoriligicha qolmoqda. Shuning uchun kichik biznesni innovatsion rivojlanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan axborot kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, ishlab chiqarish kabi ustuvor yo'nalishlarning yanada jadal rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini kuchaytirish, davlat xususiy sheriklik munosabatlarini mustahkamlash va rivojlantirish, qo'shimcha ventchur investitsiya-innovatsiya resurslarini jalb qilish zarurligini bildiradi. Shuningdek, kichik biznesning raqobatbardosh bozor muhitini shakllanishida diversifikatsiyasini ta'minlash, tovar va xizmatlar sifatini yaxshilashga, narxlar hamda xarajatlarni pasaytirishga alohida e'tibor qilish zarur.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvar PF-60 son "“2022-2026 yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'g'risida””gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

¹ Смагулова Ж.Б., Бисенова Р.А., Айдокова Б.Х. Роль малых инновационных предприятий в современной экономике // Современные наукоемкие технологии. 2017. № 12-2. С. 213–216. URL: <http://www.toptechnologies.ru>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

3. Abdullayev S. (2023). Kichik biznes subyektlarining kredit resurslariga ega bo‘lish muammolari. – Toshkent.

4. Hasanov N. (2022). Kichik biznes va raqamli texnologiyalar. – Toshkent.

5. Karimov T. (2021). Kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari. – Toshkent.

6. Ahmedov J. (2020). Kichik biznes subyektlarining bozorga kirish imkoniyatlari. – Toshkent.

7. Ismoilov I. (2019). Kichik biznesda innovatsiyalarni joriy etish. – Toshkent.

8. Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan.
<https://www.stat.uz/ru/>

9. Omarbakiyev L.A., S.M. Kantarbayeva, A.K. Nizamdinova, S.T. Zhumasheva, G.Zh. Seitkhamzina, A. Saulembekova. Consequences of changing regional integration on environmental development, agricultural markets, and food security. Global Journal of Environmental Science and Management, 9(4), 951-966 (2023). doi: 10.22035/gjesm.2023.04.19

10. Abdullaev Yo., F. Karimov. Kichik biznes va tadbirkorlik. Toshkent: Mehnat. (2000).

11. Romanenko, E. V. (2016). “Malyj biznes: osobennosti formirovaniya vzaimosvyazej”, Rossijskoe predprinimatel’stvo, № 7, pp. 11–16 (in Russian).

12. Курпаяниди К.И. Канд. экон. наук, профессор Ферганский политехнический институт (Узбекистан, г. Фергана) “Теоретические аспекты развития предпринимательства” Journal of Economy and Business, vol. 3-1 (85), 2022. Стр 186-188.

13. Стрельченко А.Е. “Экономический потенциал малого и среднего бизнеса региона в условиях политики импортозамещения”. Государственное и муниципальное управление. Ученые записки. 2017. № 4 стр. 103-108.

14. Багинова В. М., Беломестнов В. Г. “Потенциал развития малого промышленного предпринимательства в регионе” Журнал Проблемы теории и практики управления. Известия Иркутской государственной экономической академии. 2015. Т. 25, № 6. Стр. 999–1003. ISSN 1993-3541